

FARG'ONANING "SAMOVIY OTLARI"

Hasanboyev To'raqul Foziljon o'g'li – Jizzax davlat pedagogika universiteti Tarix fakulteti o'qituvchisi

Burxonova E'zoza Farxod qizi - Jizzax davlat pedagogika universiteti Tarix fakulteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Farg'ona hududida faoliyat ko'rsatgan Davan davlati, uning mashhur otlari haqida so'z boradi. "Samoviy otlar"ga xitoyliklar katta qiziqish bilan qaragan bo'lib, ularni „qon bilan terlaydigan, osmon otlari" deb ta'riflaydilar.

Kalit so'zlar. Davan davlati, Xitoy elchisi Chjan Syan, Parkana, Samoviy otlar, Ershi, Xitoy-Davan urushari, "Nisean oy", "Pegas otlari", Buyuk Ipak yo'li.

Davan davlati O'rta Osiyo durdonasi –Farg'ona vodiysida taraqqiy etgan bo'lib, 500 yildan ortiq bu qadimiy Farg'ona davlatining qadimiy davlatchiligi boshqa davlatlarning zo'ravon aralashuvisiz mustaqil ravishda rivojlanganligi e'tiborga molik. Davan bu davrda Ahamoniylar, Yunon-Baqtriya podsholigi, Kushon podsholigi va Xitoy kabi kuchli imperiyalar bilan qo'shni bo'lishiga qaramay, o'z sivilizatsiyasini erkin rivojlantirish uchun noyob tarixiy imkoniyatga ega bo'lgan o'sha davrdagi kuchli, jangari davlatlarning bo'ysunishiga tushmasdan. Qadimgi davlatning mustaqil rivojlanishiga davlatning geografik joylashuvi, suv resurslari yetarli bo'lgan tog'lar bilan o'ralganligi yordam bergan. Davan davlatining vujudga kelishi olimlar o'rtasida munozarali mavzudir.

Davlat haqidagi birlamchi ma'lumotlar qadimgi yunon va xitoy olimlarining yilnomalarida muqaddas qilingan bo'lib, ular arxeologik topilmalar bilan bir qatorda qadimgi davlatlar, jumladan Davani haqida bilim manbalari sifatida katta ahamiyatga ega. Olimlarning fikricha, Davan nomi

Farg'ona bilan bog'liq. Aksariyat tadqiqotchilar Farg'ona O'rta Osiyoning qadimiy dehqonchilik markazlaridan biri bo'lgan degan fikrni bir ovozdan qabul qiladilar [6].

Qadimiy manbalarni tahlil qilish natijasida Dovon, Davan, Parkana davlatlari Qadimgi Farg'onaning mustaqil qadimiy davlat sifatida rivojlanishini nazarda tutgan degan xulosaga keldi. Chust madaniyatining asosi aynan Qadimgi Farg'ona davlati bo'lgan. Davan Farg'ona vodiysida qadimgi davlatchilik va davlat institutlarining paydo bo'lishi bilan bog'liq [7].

Xitoychada "Dyuandan" deb nomlangan Davan davlati mil.avv II-I asrlardagi Xitoy manbalarida keng, obod, boy mamlakat sifatida ta'riflangan. Ma'lumotlarga ko'ra, Davan shahar va voha hokimlarning erkin ittifoqdan iborat davlat edi. Davan atamasi tarixiy adabiyotlarda milodiy III - asrgacha uchraydi. So'ngra Davan o'rniga „Baxan“ va „Polona“ (mil avv V – asr) atamaları uchrab turadi[5].

Mil.avv. II asr oxiridagi ma'lumotlarga ko'ra "Davan davlati aholisi 300 ming kishini tashkil etgan bo'lib, 70 dan ortiq shaharda istiqomat qilishgan. Savdo- sotiq ishlarida mohir bo'lishgan" [1].

Mil.avv 125 – yilda Davanga kelgan Xitoy elchisi Chjan Syan bu yerda qishloq va shaharlari obod, sug'orma dehqonchilik va hunarmandchilik rivojlangan bo'lib, kuchli harbiy kuchga ega ekanligini ko'radi. Davanning barcha joylarida uzum vinosi tayyorlanadi. Aholisini juda mehmondo'st va ko'ngli ochiq odamlar deb aytib o'tib ketgan. Xitoyliklarni ayniqsa, o'zlari uchun notanish bo'lgan beda va uzum hayratga solgan va Farg'onaning chorvachiligining o'ziga xos tomoni yilqichilikning shug'ullanganligi haqida Xitoy manbalarida ma'lumot berilgan. Davan antik davrda mashhur zotdor otlari bilan shuhrat qozongan edi. Ularni yetishtirish bilan o'troq aholi shug'ullangan [2].

Har bir davlat o'zining noyob narsalari bilan mashhur bo'ladi. Masalan: Badaxshon la'l, Xitoy guruch va ip- gazlamalari bilan, Farg'ona o'zining zotli otlari bilan mashhur bo'lgan. Dovon davlati Xitoy va Sharqning boshqa

mamlakatlari bilan bo'lgan xalqaro savdoda muhim o'rin tutgan. Xitoy hukmdorlarini ko'proq Farg'onaning zotli otlari qiziqtirardi. Otlar naslining biriga hatto ular „ Samoviy otlar “ deb nom berganlar [3] .

Xitoyliklar ko'chmanchi xunn qabilalariga qarshi kurashish uchun ularga „samoviy otlar“ juda kerak bo'lgan. Ammo Davanliklarning ularga ot sotishdan bosh tortishi, qator nizolar va o'zaro hurmatsizlik Xitoy elchisining o'limiga va otlar uchun to'lov sifatida yuborilgan otning musodara qilinishiga olib keldi.

Sharqda mashhur bo'lgan Mil.avv. 104-101 yillarda Davan davlati va Xitoy o'rtasida bo'lgan („Samoviy otlar“)urushi bo'lib o'tgan. Xan imperiyasi davrida imperator U- Di qo'shinlari Davan mamlakatiga hujum qilganlar. Birinchi hujum Xitoy askarlarining mag'lubiyati bilan tugagan chunki ular istehkomga aylantirilgan qishloqlarning qarshiligini sindirish uchun ojizlik qilishgan. Xitoyliklar 60 ming kishilik katta qo'shin bilan ikkinchi marta hujum qilib, 101- yilda Ershini qamal qilishgan [4] .

„Samoviy otlarga“ xitoyliklar katta qiziqish bilan qaragan bo'lib, Xitoyliklar Davandan o'z ta'riflari bilan aytgan „qon bilan terlaydigan osmon otlari“ni olib qaytganlar” [5].

Ya'ni, chopganda ularning badanida ter o'rniga qon tomchilari ko'ringan. Farg'ona otlari Xitoyga olib kelingan eng dastlabki yirik mahsulotlaridan bo'lib, Markaziy Osiyo hududida paydo bo'lgan. Mazkur otlarning tasviri Tan sulolasi qabridagi sopol idishlarda tasvirlangan. Farg'ona otlari Xitoyda “Samoviy otlar” yoki G'arbda “Nisean oy” sifatida ham mashhur bo'lgan [4]. Samoviy otlar boshqa madaniyatlar va mifologiyalarda ham uchraydi. Masalan: Markaziy Osiyo xalqlarining ertaklarida ham qanotli otlar haqida hikoyalar mavjud. Samoviy otlar shuningdek, “Pegas otlari” deb ham ataladi [2] .

Xulosa qiladigan bo'lsak, Farg'onaning “Samoviy otlari” juda ham chopqir va baquvvat o'ziga xos ot bo'lgan. Aynan bir-biriga yaqin bo'lgan davlatlarning „ Buyuk ipak yo'li “ savdosiga ta'sirini o'tkaza olgan. Bu uchqur otlar Farg'onaning buyuk madaniyat o'chog'iga ta'sir o'tkazgan deb ayta olamiz. Bu mavjudotlar ko'pincha yuksak g'oyalar, erkinlik va ilhomning ramzi

sifatida tasvirlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdulhamidova G. G'. Davan davlati (III-IV) asrlar. Journal of Effective Learning and Sustainable Innovation. Vol.2. № 3. 2024. 118-b.
2. Alimova D.A., Rtveladze E.V. "O'zbekiston davlatchiligi tarixi ocherklari". Toshkent. "Akula". 2001. 29-b.
3. Kabirov A. Qadimgi Sharq tarixi. Tafakkur nashriyoti. Toshkent. 2016. 314-b.
4. Sagdullayev A.S. Qadimgi O'rta Osiyo tarixi. Toshkent. 2004. 258-b.
5. Sagdullayev A.S., Kostetskiy V.A. Qadimgi dunyo tarixi. Yangi yo'l Poligraf Servis. Toshkent. 2013. 135-b.
6. "O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi" . Toshkent. 2002. 147-b.
7. www.wikipedia.uz internet sayti.